# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№2
MAXSUS SON

# BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2026

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr.*
*2026-yil, mart.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*



**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

XODIMLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTI, KORPORATIV MADANIYAT VA MEHNAT UNUMDORLIGI O'RTASIDAGI UZVIY BOG'LIQLIKNI CHUQUR TAHLIL QILISH ........ 8
**Shoabdurashidova Mahina Jaxongir qizi, Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ESG TAMOYILLARI INTEGRATSIYASI ORQALI KORXONALAR BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH........ 15
**Jolg'ashova Nozima Mansurovna, T.D. Mamatkulov**

АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РЕГИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ........ 21
**Давлетова Адиля Азатбаевна, Сапаев Дилшод Хушнудович**

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHI IQTISODIY O'SISHNING OMILI........ 27
**Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich**

"LOKOMOTIV" MEHMONXONASI ZAMONAVIY SHAROITLARDA XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI........ 31
**Masharipov O'rolbek Ozod o'g'li, Khodjaeva Nodiraxon Abdurashidovna**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI........ 36
**Boybosinova Shaxlo Meles qizi, Ostonov Muhriddin Bahriddin o'g'li**

AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONIDA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH VA BAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH........ 44
**Qodirjonov Dilshodjon Qosimjon o'g'li, Xolmirzayev Ulug'bek**

BUXGALTERIYA HISOBINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH........ 49
**Igamberdieva Kunduz Ergashevna, O'razova Marjona Valiboy qizi**

ВЛИЯНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ........ 55
**Камилова Наргиза Абдукахоровна, Давронов Дониёрбек Заррухович**

ANALYSIS OF OUR COUNTRY'S POSSIBILITIES FOR ACCESS TO THE SEA THROUGH THE KABUL CORRIDOR........ 61
**Khuzhamov Babur, Khudoyberdiev Diyorbek, Jumaboev Bekzod**

O'ZBEKISTONDA ESK.UZ TIZIMINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA ISTIQBOLLARI ........ 69
**M.J.Nurmetova, Baxtyorov Ahadbek Doniyor o'g'li**

O'ZBEKISTONDA KRIPTOVALYUTALARNING JORIY FOYDALANISHINI TAHLIL QILISH........ 77
**Qobilova N. Q., Normurodov X. E.**

MOLIYAVIY RISKLAR VA ULARNI XALQARO MIQYOSDA BOSHQARISH USULLARI........ 83
**Toirov Bobur G'ofir o'g'li, F.U.Umarov**

SUN'IY INTELEKTNING INSON ONGIGA VA DAVLAT KORXONALARINI RAQAMLASHTIRISHGA TA'SIRI........ 90
**Uskanboyev Temurbek Ismoil o'g'li, F.U.Umarov**

IQTISODIYOT TARMOQLARI YUKLARINI TASHISHNI TASHKIL ETISH........ 97
**Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

TARIXIY OBIDALAR ASOSIDA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ........ 102
**Boltaboyeva Maqsuda Matjonboy qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich**

TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INTERNET VA IJTIMOIY TARMOQLARNING ROLI ........ 105
**Abdumutalova Shahzoda Yodgorjon qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich**

ФИНАНСИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ЗА СЧЕТ ИНВЕСТИЦИОННЫХ И ПАЕВЫХ ФОНДОВ ........ 109
**Дилшод Насиров, Сухроб Хайитов, Самира Каримова**

КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК УСЛОВИЕ ОСМЫСЛЕННОГО РАЗГОВОРА ОБ ЭКОНОМИКЕ ........ 115
**Зайналов Ж. Р., Абдумажидов Ш. Ш.**

ГОСУДАРСТВЕННЫЕ РАСХОДЫ КАК ПОКАЗАТЕЛЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТРАНЫ ........ 119
**Юсупов Азаматжон Икромович, Ишонкулова Феруза Асатовна**

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ В ПРЕДПРИЯТИЯХ СФЕРЫ УСЛУГ ........ 124
**Насиров Дилшод Фархадович, Казакбаева Динара, Максетбаева Гулпаршин**

ВЕЛИКОЕ УСКОРЕНИЕ: КОНВЕРГЕНЦИЯ ИИ И БЛОКЧЕЙНА КАК НОВАЯ ИНВЕСТИЦИОННАЯ ПАРАДИГМА 2026 ГОДА ........ 129
**Насиров Дилшод Фархадович, Синько Юлианна Викторовна, Шамшетова Жамила Муса кызы**

KORXONANING IQTISODIY SALOHIYATINI BAHOLASH KO'RSATKICHLARI ........ 134
**Turg'unpulatov Ziyovuddin Alijon o'g'li, Odilov Xamidillo Mahmudjon o'g'li**

РОЛЬ БЛОКЧЕЙН-ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРОЗРАЧНОСТИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ ........ 139
**Дилмуродов Журабек Улугбек угли, Белалова Гузаль Анваровна**

OPERATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH ........ 144
**Nasrullayev Omonulloxon Nodirjon o'g'li, X.M. Odilov**

HAVO IFLOSLANISHI VA YASHIL TABIAT YOMONLASHUVI NATIJASIDA SOG'LIQNI SAQLASH XARAJATLARINING OSHISHI: IQTISODIY TAHLILI ........ 150
**Sotvoldiyeva Rayxona Abdurasul qizi, Odilov Xamidillo**

TIJORAT BANKLARIDA PUL MABLAG'LARI HARAKATI VA LIKVIDLIK TAHLILI ........ 155
**Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi, X.M.Odilov**

NOMINAL VA REAL YAIM VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASIDAGI AHAMIYATI ........ 162
**Ziyodullayev Dilshod Sherzodovich, Jo'rayev Toshbolta To'xtayevich**

# NOMINAL VA REAL YAIM VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASIDAGI AHAMIYATI

**Ziyodullayev Dilshod Sherzodovich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Moliya fakulteti talabasi
Email: ziyodullayevdilshod65@gmail.com

Ilmiy rahbar:
**Jo'rayev Toshbolta To'xtayevich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasi professori, i.f.d.

Annotatsiya: Ushbu maqolada makroiqtisodiy barqarorlikni baholashning asosi bo'lgan nominal va real yalpi ichki mahsulot (YaIM) ko'rsatkichlari nazariy va amaliy tomondan tahlil qilingan. Tahlillar jarayonida iqtisodiy o'sishni aniqlashda narxlar omili va ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlik, jumladan, inflatsiya darajasining YaIM ko'rsatkichlariga ta'siri yoritib berilgan. Maqolada milliy iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lidagi strategik maqsadlar uchun real o'sish sur'atining muhimligi asoslab berilgan. Shu bilan birga, iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirishda makroiqtisodiy indikatorlarni aniq hisoblash va tahlil qilish bo'yicha xulosa va takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: nominal YaIM, real YaIM, iqtisodiy o'sish, inflatsiya, makroiqtisodiy tahlil, makroiqtisodiy indikator, milliy iqtisodiyot, real o'sish sur'ati.

Abstract: This article provides a theoretical and practical analysis of nominal and real Gross Domestic Product (GDP) indicators, which serve as the fundamental basis for assessing macroeconomic stability. The study explores the relationship between price factors and production output in determining economic growth, including the impact of inflation rates on GDP measures. The significance of real growth rates for achieving strategic goals in the development of the national economy is substantiated. Furthermore, the paper offers conclusions and recommendations for the accurate calculation and analysis of macroeconomic indicators to enhance the efficiency of economic reforms.

Key words: nominal GDP, real GDP, economic growth, inflation, GDP, macroeconomic analysis, macroeconomic indicator, national economy, real growth rate.

Аннотация: В данной статье проводится теоретический и практический анализ номинального и реального показателей валового внутреннего продукта (ВВП), являющихся основой оценки макроэкономической стабильности. В процессе анализа освещается взаимосвязь между ценовым фактором и объемом производства при определении экономического роста, в том числе влияние уровня инфляции на показатели ВВП. Обоснована важность темпов реального роста для достижения стратегических целей развития национальной экономики. Вместе с тем, представлены выводы и предложения по точному расчету и анализу макроэкономических индикаторов в целях повышения эффективности экономических реформ.

Ключевые слова: номинальный ВВП, реальный ВВП, экономический рост, инфляция, ВВП, макроэкономический анализ, макроэкономический индикатор, национальная экономика, темпы реального роста.

## KIRISH

Bugungi kunga kelib, globallashuv va raqamli asrda har bir davlat raqobat ostida nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy tomondan o'z qudratini mustahkamlashga harakat qiladi. Aksariyat mamlakatlar birinchi o'rinda o'z iqtisodiy salohiyatini mustahkamlab, barqaror rivojlanishni, uzoq muddat yuksalish fazasida bo'lishni va aholi turmush farovonligini yaxshilashni o'z oldiga maqsad qilib belgilagan. Ushbu holatlarni o'rganishda va mamlakatning real holatini baholashda yalpi ichki mahsulot (YaIM) eng muqobil va bosh makroiqtisodiy indikator bo'lib xizmat qiladi. Lekin mamlakat iqtisodiyotidagi miqdor va sifat o'zgarishlarini to'g'ri tahlil qilish uchun nominal hamda real YaIM ko'rsatkichlarini o'zaro qiyoslash va ularni bir-biridan ajrata olish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu mavzuning fundamental ahamiyati shundaki, nominal YaIM tovar va xizmatlarning ayni vaqtdagi qiymatini ifodalasa-da, u ko'p hollarda raqamlarni sun'iy ravishda yuqori ko'rsatadi. Bunga sabab, nominal YaIMni hisoblash jarayonida inflatsiya va inflatsion jarayonlar ham hisobga olinadi. Biroq, real YaIM narxlarning tebranish omillaridan tozalangan holda iqtisodiyotdagi haqiqiy ishlab chiqarish hajmi va samaradorligini ochiq namoyon etadi. Shunday ekan, iqtisodiy prognozlarni, islohotlarning natijadorligini xolisona baholashda aynan real ko'rsatkichlarga tayaniladi [1]. Shuni ta'kidlash joizki, mamlakatimizning iqtisodiy o'sish dinamikasini aniqlashda asosiy e'tibor real YaIM ko'rsatkichiga qaratiladi.

Bizning fikrimizcha, muntazam ravishda real YaIM ko'rsatkichlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Garchi bu ko'rsatkich iqtisodiyot hajmini nominal raqamlarga nisbatan birmuncha kamaytirib ko'rsatsa-da, iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy sifatini va aholining real xarid qobiliyatini xolisona aks ettiradi. Ushbu maqolada aynan mana shu qiyosiy jihatlar va ularning O'zbekiston iqtisodiyoti tahlilidagi o'rni atroflicha yoritiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda iqtisodiyot fanida har bir mamlakatning iqtisodiy farovonligini baholashda nominal va real YaIM ko'rsatkichlarini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu va shu kabi yo'nalishdagi tadqiqotlar o'tgan asrning birinchi yarmida fan sifatida shakllangan va hozirgacha turli iqtisodiy maktablar vakillari, moliya va iqtisod lavozimidagi rahbarlar, universitetlarning professor-o'qituvchilari tomonidan takomillashtirib kelinmoqda. Ushbu tushunchani birinchilardan bo'lib fanga kiritgan va tizimlashtirgan tadqiqotchi, Nobel mukofoti sovrindori Simon Kuznets hisoblanadi. Uning 1934-yilda e'lon qilingan "National Income, 1929-1932" nomli hisoboti iqtisodiy o'sishni aniqlashda muhim burilish yasadi. Kuznetsning fikricha 1934-yilda mamlakatlarning milliy daromadini faqat hozirgi narxlar bilan ifodalash iqtisodiyotning real o'sish sur'atini aks ettirmaydi. Narxlar o'rtasidagi farqlarni chiqarib tashlab hisoblash ko'pchilik uchun iqtisodiy rivojlanish haqida noto'g'ri tasavvur uyg'otishi mumkin. Shuning uchun ham bazaviy davr narxlariga tayanib tahlil qilishni asosiy indikator sifatida taklif etgan. Bunday yondashuv iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning haqiqiy hajmini aniqlashga va aholi turmush farovonligi darajasini yanada aniqroq ko'rsatish imkonini bergan [2].

Zamonaviy makroiqtisodiyotning eng nufuzli vakillaridan biri Nicholas Gregory Mankiw o'zining asarlari, darsliklari, xususan, "Principles of Economics" orqali shu nazariyani amaliy jihatdan boyitdi. Mankiw darslikning 23-bobida ("Measuring a Nation's Income") nominal YaIMni joriy narxlardagi ishlab chiqarish hajmi sifatida, real YaIMni esa bazaviy yil narxlari asosida hisoblanganda haqiqiy o'sish ko'rsatkichi sifatida tabaqalashtiradi. Oradagi tafovutni YaIM deflyatori orqali aniqlab, nominal ko'rsatkichni "narxlar shovqini"dan tozalab, iqtisodiyotning real quvvatini ochib bergan [3]. Mazkur nazariya hozirgi vaqtda dunyoning barcha yetakchi markaziy banklari va xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan qo'llaniladigan standart hisoblanadi.

O'zbekistonning milliy iqtisodchi professor olimlari ham ushbu nazariyalarni mahalliy sharoitga moslashtirish borasida samarali izlanishlar olib bormoqdalar. Ular o'zlari tomonidan yaratilgan darsliklar, adabiyotlar va o'quv qo'llanmalarda nominal va real YaIM haqida atroflicha ma'lumotlar va tahlillar keltirganlar. Jumladan, Jo'rayev Toshbolta To'xtayevich o'zining "Iqtisodiyot nazariyasi" darsligida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda milliy xo'jaliklarning tarkibiy o'zgarishlarini inobatga olish zarurligini ta'kidlaydi. Uning ilmiy qarashlariga ko'ra, bozor iqtisodiyotida narxlarning erkinlashishi, inflatsion yoki deflyatsion jarayonlar nominal YaIM hajmini sun'iy ravishda oshirib ko'rsatishi mumkinligi keltirib o'tilgan [4]. Shu sababli iqtisodiy strategiyalarni belgilashda va mamlakatimizning iqtisodiy qudratini raqamlarda ifoda etishda bir xil ko'rsatkich, xususan, real sektor o'sishiga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'rganilgan nazariy manbalar va iqtisodchi professor olimlarning fikrlarini yaxlit qilgan holda aytish mumkinki, ular tomonidan ilgari surilgan g'oyalarda mantiqiy hamohanglik mavjud. Yuqorida keltirilgan yondashuvlar tahlili shuni tasdiqlaydiki, mamlakatning haqiqiy iqtisodiy quvvatini faqatgina xalqaro reytinglarda nominal YaIM orqali emas, balki narxlar tebranishidan xoli bo'lgan holda real ko'rsatkichlar orqali baholash lozim. Aynan bizning tadqiqotimizda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida texnologik o'sish modelini yaratishda bosh metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Xabarimiz bor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son[1] Farmoni “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturini yangi talablar asosida takomillashtirish maqsadida qabul qilindi. Asosiy iqtisodiy masala sifatida barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish etib belgilandi. Xususan, strategiyaning quyidagi bandlari tadqiqotimizning amaliy ahamiyatini belgilab beradi:

- Iqtisodiy hajmni kengaytirish;
- Ishlab chiqarishda texnologik burilish;
- Raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotdagi ulushi;
- Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash.

Strategiyada mamlakatimiz inflatsiyasini 5 foizlik target darajasiga tushirish vazifasi qo‘yilgan. Bu esa N.G. Mankiw nazariyasidagi “narxlar shovqini”ni kamaytirish orqali nominal YaIMni real YaIMga yaqinlashtirishga xizmat qiladi [5].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasidagi texnologik modelga o‘tish hamda tizimli baholashga qaratilgan. Tadqiqot jarayoni quyidagi metodologik bosqichlar va usullarni o‘z ichiga oladi:

- Manbalar tahlili;
- Statistik, normativ va huquqiy bazalar;
- Dinamik qatorlar tahlili;
- SWOT tahlili;
- Sintez va abstraksiyalash.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bizga ma’lumki, nominal va real YaIMni hisoblashda YaIM deflyatoridan foydalanamiz. YaIM deflyatori quyidagicha aniqlanadi:

Quyidagi jadvalda oxirgi 3 yillikning nominal va real YaIM keltirilgan. Bu jadval orqali ikki ko‘rsatkich orasidagi farq va mamlakatimizning iqtisodiy o‘sish sur’atini, aholining turmush darajasini tahlil qilishimiz mumkin (1-jadval) [6].

1-jadval. O‘zbekiston Respublikasining so‘nggi 3 yillikdagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari[2]

| Ko‘rsatkichlar | 2023-yil | 2024-yil | 2025-yil |
|---|---|---|---|
| Nominal YaIM (mlrd. so‘m) | 1261806,0 | 1535431,7 | 1849650,0 |
| Real YaIM (mlrd. so‘m) | 1107683,3 | 1346046,6 | 1653654,2 |
| Nominal va real YaIM orasidagi farq (mlrd. so‘m) | 154122,7 | 189385,1 | 195995,8 |
| Iqtisodiy o‘sish sur’ati (foizda) | 106,3 (+6,3%) | 106,7 (+6,7%) | 107,7 (+7,7%) |

Yuqoridagi jadvalda ko‘rinib turibdiki, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan zamonaviy modelga o‘tish va barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlariga mos keladi.

Iqtisodiyot barqaror o‘sishda turli xil imkoniyatlar bilan birga turli qiyinchilik va xavf-xatarlarga duch keladi. Unda SWOT tahlilidan foydalanish ularni oldindan tahlil qilish imkonini beradi (1-rasm) [7].

1 https://lex.uz/uz/docs/-8050769
2 Muallif ishlanmasi




1-rasm. Barqaror iqtisodiy o‘sishning SWOT tahlili[3]

Bundan tashqari, Markaziy bankning monetar siyosati ham iqtisodiy o‘sishga ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu tahlil va natijalar ham taklif etilayotgan yechimlar tarkibiga kiradi (2-rasm) [8].




2-rasm. Markaziy bankning monetar siyosati (iqtisodiy o‘sishga ta’siri)[4]

Yuqorida keltirib o‘tilgan barcha tahlillar va natijalar iqtisodiy o‘sishga bevosita va bilvosita ta’sir qilishini hisobga olish kerak. Chunki ayrimlari tezda ta’sir ko‘rsatib, natija ko‘rsatsa, boshqalari esa ma’lum vaqt davomida, bosqichma-bosqich ta’sir ko‘rsatadi. Bularning barchasi sof iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi. Ularni real YaIMda hisoblash bu natijalarni, xususan, aholi farovonligi, milliy iqtisodiyotimizning qudratini yanada aniqroq ko‘rsatadi.

Xarajatlarni kamaytirishimiz kerak. Hozirda bizning iqtisodiyotimiz “xarajat > daromad, xarajat = daromad” ko‘rinishida [9]. Biz buni yuqorida keltirib o‘tilgan yechimlar asosida “xarajat < daromad” holatiga keltirsak va haqiqiy natijani haqiqiy sonlarda ko‘rsata olsak, natijada strategiyamizda belgilangan o‘rtadan yuqori daromadli, kerak bo‘lsa yuqori daromadli millat bo‘lib shakllanishga erishgan bo‘lamiz.

3 Muallif ishlanmasi
4 Muallif ishlanmasi

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, nominal va real YaIMni o‘z o‘rnida qo‘llashimiz (asosan real YaIM) va iqtisodiy o‘sishga evolutsion tarzda o‘tishimiz kerak. Bular orqali mamlakatimiz ko‘zlagan maqsadiga erishadi, aholi turmush darajasi yaxshilanadi. Kuchli tomonlarimizni aniqlab, ular orqali bajarish mumkin bo‘lgan imkoniyatlardan foydalanishimiz va kuchli bo‘lmagan tomonlarimizni bilgan holda, kelajakda yuz berishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarga tayyor turishimiz lozim. Buning uchun aniq maqsad belgilab, mukammal tuzilgan strategiya asosida iqtisodiyotni texnologik-zamonaviy modelga o‘tkazish kerak. Nominal va real YaIM o‘rtasidagi farqni qisqartirib, kam xarajat qilib, ko‘proq mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni amalga oshirishimiz zarur. Bular orqali ijobiy tomonlar shakllanadi. Ammo salbiy tomonlarni ham unutmaslik kerak. Shu o‘rinda quyidagi takliflarni keltirib o‘tish mumkin:

• Resurslar hisobiga iqtisodiy o‘sishga erishmasligimiz kerak. Chunki bir tomondan resurslar ko‘payib boraversa, boshqa tomondan iqtisodiy o‘sish yuzaga kelsa, bu sof iqtisodiy o‘sish va aholining turmush darajasining yaxshilanishi bo‘lmaydi. Shuni inobatga olish yanada maqsadga muvofiq bo‘ladi.

• Ko‘proq songa emas, sifatga urg‘u qaratishimiz kerak. Bunga Adam Smithning “ko‘rinmas qo‘l” nazariyasi ham misol bo‘ladi. Natijada sof raqobatli muhit yuzaga keladi. Odamlar o‘z manfaatini ko‘zlab, iqtisodiyotni o‘zi bilmagan holda rivojlantiradi. Bu nominal va real YaIM o‘rtasidagi farqni qisqartirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz barqaror iqtisodiy o‘sishga erishmoqda. Buni yanada mukammallashtirish uchun harakat qilinsa, maqsadimizga belgilangan muddatdan ancha oldin erishish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son Farmoni // https://lex.uz/uz/docs/-8050769
2. E.I. Ergashev, N.S. Kasimova, U.K. Muxtorova, G.X. Nazarova, M.E. Jabborov; o‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. – 20 b.
3. Kuznets, Simon. National Income and Its Composition, 1919-1938. – National Bureau of Economic Research (NBER), 1941.
4. Mankiw, N. Gregory. Macroeconomics. 10th Edition. – Worth Publishers, 2019. – 608 p.
5. T.T. Jo‘rayev, M.A. Hamidov. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2024. – 261 b.
6. https://lex.uz/uz/
7. https://stat.uz/uz/
8. https://t.me/centralbankuzbekistan
9. T.S. Malikov, O.O. Olimjonov. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 369–372 b., 405–423 b.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

## 2-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to‘plami

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz